



## THE ROLE OF ISLAM IN PROMOTING INTERFAITH HARMONY: A HISTORICAL ANALYSIS (UZBEKISTAN)

**Bekzod Mamatkulov**

*PhD*

*University of Economics and Pedagogy*

*Uzbekistan*

*E-mail: [bmamatqulovpmqarshi@gmail.com](mailto:bmamatqulovpmqarshi@gmail.com)*

**Abbos Qurbanov**

*senior lecturer*

*University of Economics and Pedagogy*

*Uzbekistan*

*E-mail: [abbosqurbanov@gmail.com](mailto:abbosqurbanov@gmail.com)*

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Religion, tolerance, Islam, Buddhist, Christian, politics, war, culture, peace, social factor, stable, government, public policy, law, security, historical aspect.

**Received:** 08.12.24

**Accepted:** 10.12.24

**Published:** 12.12.24

**Abstract:** The state policy aimed at ensuring inter-confessional harmony in Uzbekistan, the religious confessional situation in Uzbekistan, the role of the activities of confessions in ensuring the security of the country's stable development are analyzed based on historical aspects.

## KONFESSIYALARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA ISLOM DINI OMILI: TARIXIY TAHLIL (O'ZBEKISTON TAJRIBASI MISOLIDA)

**Bekzod Mamatkulov**

*PhD*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*O'zbekiston*

*E-mail: [bmamatqulovpmqarshi@gmail.com](mailto:bmamatqulovpmqarshi@gmail.com)*

**Abbos Qurbanov**

*katta o'qituvchi*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*O'zbekiston*

*E-mail: [abbosqurbanov@gmail.com](mailto:abbosqurbanov@gmail.com)*

---

## МАQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Konfessiya, bag‘rikenglik, islom, budda, xristian, siyosat, urush, madaniyat, tinchlik, ijtimoiy omil, barqaror, hukumat, davlat siyosati, qonun, xavfsizlik, tarixiy aspekt.

**Annotatsiya:**

O‘zbekistonda konfessiyalararo totuvlikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati, O‘zbekistonda diniy konfessional manzara, mamlakatning barqaror rivojlanishi xavfsizligini ta’minlashda konfessiyalar faoliyatining o‘rni tarixiy aspektlar asosida tahlil etilgan.

---

### ФАКТОР ИСЛАМА В ОБЕСПЕЧЕНИИ МЕЖКОНФЕССИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА)

*Бекзод Маматкулов*

*PhD*

*Университет экономики и педагогики*

*Узбекистан*

*E-mail: [bmamatkulovptqarshi@gmail.com](mailto:bmamatkulovptqarshi@gmail.com)*

*Аббос Курбанов*

*старший преподаватель*

*Университет экономики и педагогики*

*Узбекистан*

*E-mail: [abbosqurbanov@gmail.com](mailto:abbosqurbanov@gmail.com)*

#### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Узбекская ССР, промышленность, фабрика, фабрика, реформа, хлопчатобумажная промышленность, Сурхандарьинская, Кашкадарьинская, история, заработка плата, ПТУ, женские училища.

**Аннотация:** На основе исторических аспектов анализируются государственная политика, направленная на обеспечение межконфессионального согласия в Узбекистане, религиозно-конфессиональный ландшафт в Узбекистане, роль деятельности конфессий в обеспечении безопасности стабильного развития страны.

---

#### KIRISH

Bugungi kunda butun dunyoda insoniyat sivilizatsiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan, unga o‘ziga xoslik baxsh etayotgan ijtimoiy omillar qatorida dinlararo muloqot va konfessiyalararo totuvlik, umuman olganda, diniy omilning alohida o‘rni bor. Bu jarayon 16 ta diniy konfessiyaga mansub, 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladigan O‘zbekistonga ham taalluqlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida talabalarning bilim va

ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Diniy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o‘zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan. Bugungi kunda diniy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma’naviy muhitning, balki har bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi hamdir.

O‘zbekiston zaminida qadim zamonlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar yashab kelgan. Ko‘p millatli Vatanimizda bugungi kunda islom diniga e’tiqod qiluvchi insonlar bilan bir qatorda 15 ta diniy konfessiya vakillari yonma-yon yashab, hamkorlik qilib kelmoqda. Bugungi kunda yurtimizda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, fuqarolarga o‘z e’tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiylar ushtarak an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hozirgi tezkor va shiddatli dunyoda mingdan ziyod dinlar, millat va elatlar yashamoqda. Shu sabab tinchlik va osoyishtalikni saqlash, diniy va milliy adovatning oldini olish uchun milliy ahillik, diniy bag‘rikenglik hamda konfessiyalararo totuvlikni ta’minalash obyektiv zaruriyatdir. Bugun dunyoning ayrim hududlarida diniy va milliy ko‘rinishda sodir bo‘layotgan ijtimoiy to‘qnashuvlarga aynan diniy tolerantlik va milliy totuvlikning ta’minalaganligi sabab bo‘layotgani ham ayni haqiqatdir. Zero jahonda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish muammosi ko‘chilik davlatlarning barcha sayi-harakatlarini ishga solishni taqozo etmoqda.

“O‘zbekistonda konfessiyalararo totuvlikni ta’minalash barqaror rivojlanish omili” mavzusini o‘rganish hamda ilmiy tahlil qilish, shu nuqtai nazardan jamiyatning barqarorligini ta’minalash masalalarini tadqiq etishning muhimligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

birinchidan, bugungi kunda dunyo hamjamiyati murakkab taraqqiyot jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda diniy bag‘rikenglik, konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash, turli dinlarga mansub xalqlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni kengaytirish nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega;

ikkinchidan, O‘zbekiston ko‘p millatli, ko‘p konfessiyayli davlat bo‘lib, millatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari, shuningdek, konfessiyalararo hamjihatlik masalalari ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida kishilik jamiyati rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan, unga o‘ziga xoslik baxsh etayotgan ijtimoiy omillar qatorida diniy omilning alohida o‘rni bor;

uchinchidan, hozirgi vaziyatda dunyoning turli davlatlarida milliy va diniy nizolarning sodir bo‘layotganligi, xususan, bir qancha mamlakatlarda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar,

ziddiyatli to‘qnashuvlar, umuman, har qanday mamlakatning barqarorligiga raxna solishga qaratilgan dinlararo munosabatlarda yangi-yangi tahdidlarni yuzaga kelayotganligi;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi borasida olib borilgan siyosat demokratik o‘zgarishlarni va ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishga, jamiyatda millatlararo va dinlararo ahillikni saqlanishiga imkon yaratmoqda. Bu tajribalarni atroflicha tadqiq qilish, mustaqillik yillarida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash borasida yurtimizda amalga oshirilgan ulkan ishlarni xalqaro miqyosda targ‘ib etish, xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish nafaqat mamlakatimiz uchun, balki jahondagi tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi;

beshinchidan, ma’lumki iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot yo‘liga kirgan O‘zbekiston turli diniy mafkuralarga ega davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat shu sohaga daxldor xodimlardan, balki har bir fuqaroden jahon dirlari, turli diniy oqim va konfessiyalar haqida ilmiy tasavvur va tushunchaga ega bo‘lish talab qilinadi;

oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasining konfessiyalararo totuvlikni ta’minalashdagi o‘ziga xos tajribasi ko‘p yillar mobaynida turli millat va din vakillari o‘rtasida murosasiz kurash to‘xtamayotgan mamlakatlar uchun namuna bo‘lishi mumkin. Shuningdek, yurtimizdagi bu boradagi ijobiy holat jamiyat barqarorligini ta’minalashda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati uchun xizmat qiladi.

Mazkur muammoning ilmiy-nazariy va metodologik jihatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator asarlarida, nutqlarida va xalqaro tashkilotlardagi ma’ruzalarida har tomonlama yoritilib berilgan.

### **MANBA VA ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mazkur mavzu keng manbaviy materiallar asosida tahlil etildi.Ularni shartli ravishda to‘rt guruhga, ya’ni, 1) ilmiy maqolalar va tezislar; 2) risola va monografiyalar; 3) mavzuga aloqador masalalar xususidagi doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari; 4) diniy konfessiyalar va vijdon erkinligi masalalariga oid meyoriy –huquqiy asoslarga ajratish mumkin. Manbalar orasida ayniqsa ilmiy maqolalar juda qimmatlidir, bu manbalarni o‘rganilishi natijasida juda keng daliliy materiallar bir joyga jamlandi.

Tadqiqotchi B.Babajanov Markaziy Osiyoda konfessiyalararo munosabatlarning o‘ziga xoz jihatlari nomli maqolasida asosiy e’tibor dinlararo bag‘rikenglikning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan. Muallif bu mavzuni dalillar va muqaddas manbalardagi fikrlar bilan yoritadi. Konfessiyalararo totuvlik jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikning asosiy omili sifatida zikr etiladi.

Rossiyada konfessiyalararo muloqotda islom omili tarixiy va hozirgi kundagi holatini rus olimi R.Muxametshin o‘rganadi (qiyosiy o‘rganish maqsadida tahlil qilindi).

Y.Shapoval muallifligidagi tadqiqotda Qozog‘iston misolida ko‘pkonfessiyali va ko‘pmillatli jamiyatdagi dinlararo munosabatlar masalalari tahlil etilgan (qiyosiy o‘rganish maqsadida tahlil qilindi).

Ikkinchi manbalarga vijdon erkinligi va diniy konfessiyalar faoliyati, umuman mamlakatimizda diniy omil, diniy bag‘rikenglikni o‘rni, mazmun - mohiyatini maxsus monografik tarzda o‘rgangan olimlarning asarlarini kiritish mumkin. O.Limanov, B. Kadirov muallifligidagi risolada O‘zbekistondagi dinlararo bag‘rikenglikni shakllantirish va mustahkamlashning asosiy tamoyillari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida konfessiyalararo munosabatlarni rivojlantirish va yanada demokratlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq masalalar yoritib berilgan. Unda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan diniy bag‘rikenglikning ijtimoiy-tarixiy, siyosiy-huquqiy va madaniy asoslari tahlil etilgan.

A.Saidov o‘z monografiyasida insoniyat murakkab taraqqiyot jarayonini boshidan kechirayotgan globallahuv sharoitida dinning turli xalqlar o‘rtasida muloqot o‘rnatish, ularni ma‘naviy jihatdan yaqinlashtirish, O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishda orttirilgan o‘ziga xos tajribani tahlil qilish va boshqa shu kabi masalalar o‘rin olgan.

Mustaqillik yillarda bu mavzuga aloqador masalalar xususida doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Davlatimizning dinga nisbatan bo‘lgan siyosatida ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali hisobga olgan holda diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytira borilishi va shu asosda mamlakatda tinchlik, barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari ham kengayib borishini, bu esa diniy bag‘rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim sharti ekanligini E.Ibragimov o‘z tadqiqotida ilmiy tahlil etadi. Muallif mamlakatimizdagi mavjud xristian konfessiyalarining tarixi, ta’limoti va tarkibiy tuzilishi, shuningdek O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan xristian konfessiyalarning diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash yo‘lidagi faoliyatini tadqiq etgan. Ammo dissertatsiyada faqat xristian konfessiyalari o‘rganilib, (xristian konfessiyalari mamlakatimizda mavjud konfessiyalarning 40 foizini tashkil etadi), shuningdek diniy bag‘rikenglik masalalari, uning mazmun mohiyati, tamoyillari va namoyon bo‘lish xususiyatlariga ko‘proq ahamiyat berilgan.

Tadqiqotchi Z.Husniddinov davlatimizning mamlakatimizda huquqiy, demokratik davlat bunyod etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lida olib borayotgan odilona siyosatida dinga bo‘lgan munosabatni belgilovchi tamoyillar Konstitutsion mezonlarga asoslangan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida» gi O‘zbekiston Respublikasi qonunidan kelib chiqadigan muhim jihatlariga, shuningdek islom dini, uning oqimlari va ahamiyatini tahlil qilishga qaratgan.

I. Stepakova Rossiyada mavjud konfessiyalarining tarixi, ta’limoti va tarkibiy tuzilishi, davlat va din munosabatlari, Rossiyada diniy bag‘rikenglik borasida amalga oshirilgan ishlar va ulkan yutuqlar xususida so‘z boradi. (qiyosiy o‘rganish maqsadida tahlil qilindi).

Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizdagi mavjud diniy konfessiyalar va tashkilotlar to‘g‘risida, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar nihoyatda kam.

To‘rtinchi yo‘nalish manbalariga kiritilgan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar tahlilida O‘zbekistondagi vijdon erkinligi va diniy konfessiyalar faoliyatiga oid munosabatlar yoritiladi. Vijdon erkinligi, bag‘rikenglikning ijtimoiy mohiyati, ularning namoyon bo‘lish shakllari, mamlakatimizdagi diniy tashkilotlarning jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha konfessiyalar tarixi, ta’limoti, o‘ziga xos xususiyati va ularning jamiyat barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni bo‘yicha alohida va maxsus tadqiqotlar olib borilmagan.

## NATIJALAR

Global diniy makonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlardan biri bu muayyan din yoki konfessiyaning konkret hudud bilan shartlanishidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Chunki hozirda diniy hayotda sodir bo‘layotgan o‘zgarish ularning an‘anaviy konfessional, siyosiy, madaniy va sivilizatsiyaviy chegaralar doirasidagina emas, balki transmilliy, transetnik darajalarda ham kechmoqda. Xususan, neopyatidesyatniklar, bahoiylar faoliyati bu yo‘nalishdagi jarayonlarga misol bo‘la oladi. Diniy hayotdagagi global dinamik o‘zgarishlarning yana bir xususiyati, iqtisodiy jarayonlar va ijtimoiy sohaning bir qator jabhalarida global kommunikatsiya maydonida yuzaga kelgan tarmoq modellari kabi “tarmoq dirlari” fenomenining vujudga kelgani bilan ham xarakterlidir.

O‘tmishda yaratilgan ma’naviy qadriyatlarni e’zozlab, islom dinining asl mohiyatini anglash va davr talablarini to‘g‘ri tushunib, hamjihatlik va bag‘rikenglik bilan yagona maqsad yo‘lida faol harakat qilishga zamin yaratilayotgani sir emas.

Ta’kidlash joizki, diniy asnodagi kelishmovchiliklar o‘tgan XX asrga nisbatan XXI asrda ancha kuchayganligi, so‘ngi vaqtarda dunyo miqyosida sodir etilgan 50 dan ortiq kelishmovchiliklar aynan diniy asosda vujudga kelgan. 2000 yildan boshlab dunyoda sodir etilgan 43 foizi fuqarolik urushlari diniy asnoda, ya’ni missionerlik va prozelitizm harakatlari tufayli sodir etilgan. 2016–2018-yillar mobaynida missionerlik va prozelitizm harakatlari oqibatida dunyoning 139 ta davlatlarida haqoratlar, zo‘ravonliklar sodir etilgan bo‘lsa, shundan 35 ta davlatda mazkur holat insonlarning bevaqt o‘limga sabab bo‘lgan. O‘z navbatida, yuqorida ko‘rsatilgan davr mobaynida 24 ta davlatda diniy asnodagi urushlar va qurolli kelishmovchiliklar sodir etilgan bo‘lsa, shundan 5 ta mamlakatda jabr chekkanlar va uy-joyidan ayrilganlar soni 100 ming kishini tashkil etgan. Dunyoning yana 5 mamlakatida ularning soni bir million kishini tashkil etgan edi.

O'zbekistonda diniy konfessiyalar erkin faoliyati yo'lga quyilib, soha huquqiy asoslari yaratilgan. Bu O'zbekiston Respublikasini ko'p millatli, ko'p konfessiyali davlat ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston tarixida milliy va diniy asosda sodir bo'lgan urushlar kuzatilmaydi, ammo, O'zbekistonda millatlararo, dinlararo va konfessiyalararo to'qnashuvlar keltirib chiqarishga urinishlar o'tmishda doimo bo'lgan va bugun ham bunday harakatlar zamonaviy ko'rinishlarda bo'lib turibdi. Konfessiyalararo tafovutlashuv jarayonlarini oldini olishga xizmat qiladigan samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish, konfessiyalar va diniy tashkilotlarning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi rolini oshirish omillariga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini olib borish eng dolzarb muammolardandir.

Din va davlat munosabatlari, konfessiyalararo muloqot borasidaadolatli modelni tanlash barqaror rivojlanish va xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili bo'lib, bu borada O'zbekiston Respublikasi tajribasini tadqiq etish va uni xalqaro miqyosda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Umuman, olganda hozirgi globallashuv davrida milliy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash jarayonining mazmunini tashkil etishda hozirgi zamon muammolari orasida dinlararo muloqot va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash alohida o'rin tutadi.

### MUHOKAMA

O'zbekiston qadimdan dinlar o'lkasi bo'lib, islomdan avval zardushtiylik, xristianlik, yahudiylik va boshqa o'nga yaqin dinlar mavjud bo'lgan. Dinlararo munosabatlarda birona nizo chiqqanligi tarixiy kitoblarda qayd etilmagan. Bugungi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisini 86,3 foizi musulmon, 9 foizi pravoslav, 3 foizi boshqa dinlarga e'tiqod qiladi, 1,7 foizi hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydi. Davlatimizning dinga nisbatan bo'lgan siyosatida bu vaziyatni hisobga olgan holda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytira boriladi va shu asosda mamlakatda tinchlik, barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari ham kengayib boradi. Konfessiyalararo munosabatlarning o'zaro hamkorlik, do'stlik yo'lidan borishini ta'minlash davlatning siyosati darajasiga ko'tarilgan desak bo'ladi.

Mustaqillikka erishganimizga qadar yurtimizda faqat 87 ta masjid faoliyat ko'rsatgan. Bugun O'zbekistonda 2000 dan ziyod masjid ishlab turibdi. Mustaqillik yillarida jamiyat a'zolarining vijdon erkinligini ta'minlash, ularning o'z diniy marosim va urf-odatlarini ado etishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Masalan, 1980 yilda sobiq Ittifoq bo'yicha faqat 17 kishi muqaddas haj ziyoratiga borgan bo'lsa, 2001 yilning o'zidayoq 4 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz bu saodatga musharraf bo'lganlar. Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisqa vaqt ichida minglab yurtdoshlarimiz haj va umra ziyoratini amalga oshirish baxtiga muyassar bo'ldilar.

O'zbekistonda bag'rikenglik borasida olib borilgan siyosat demokratik o'zgarishlarni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishga, jamiyatda millatlararo va dinlararo ahillikni

saqlanishiga imkon berdi. Diniy bag‘rikenglik o‘zbek madaniyati hamda mentalitetining ajralmas qismiga aylandi.

## XULOSA

Yangi O‘zbekistonda so‘ngi yillarda har bir sohada, shu jumladan ta’lim sohasida islohotlar olib borilayotgani, o‘sib kelayotgan yosh avlodni kelajakda inson degan sharaflı nomga munosib ravishda tarbiya va ta’lim olib kamol topishlariga mamlakatimizning oqil insonlari jon kuydirayotgani va bu borada ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan amaliy ishdar va tadbirlar tahsinga sazovordir. Ushbu jarayonda bugungi o‘zbek jamiyatining mutlaq ko‘pchiligi insonning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirib, axloqini tarbiyalashdagi dinning yuksak axloqini, inson ruhiyatida insoniy fazilatlarni yaratuvchanligini qo‘llab - quvvatlamoqda. Milliy va diniy qadriyatlarni anglatish yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qilishi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Yosh avlodning ta’lim va tarbiyasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish nafaqat hukumatimizning yoki maktablarning vazifasi, balki har bir ota-onaning ham muqaddas burchlaridan hisoblanadi. Albatta, farzandlarimizni komil inson qilib, ilmli qilib tarbiyalashimiz kerak. Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasbu hunarlari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari ham o‘sib borishi zarur. Shu jumladan, yoshlarimizning ta’lim –tarbiyasini asriy va azaliy sharqona qadriyatlarmiz va mamlakatimizning milliy mafkurasi bilan uyg‘unlashtirishimiz, aynan mana shu o‘rinda yoshlarga diniy-axloqiy bilimlarni ta’lim berish bugunning kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifalaridan biridir.

“Tarixa teran nazar solsak, bizlarning yetti ajdodlarimiz kim ekanini ko‘ramiz. Ne-ne buyuk daholar, mutafakkiru allomalar aynan shu siz va biz yashayotgan muqaddas Vatanda yashab o‘tganlar. Huddi ular singari ularning surriyotlari ham hali dunyo tamadduniga o‘z hissalarini qo‘shishiga hech kim shubha qilmaydi. Chunki yoshlarimiz tomirida ajdodlarimizning qonlari oqib turibdi”.

Shu bilan birga dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan allomalarimizning ilmda komillik sari yetmoqlarida islom dinining ta’sirini ham alohida ta’kidlash zarur. Imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Dorimiy, imom Moturidiy Abu Mu’in Nasafiy kabi allomalar bilan bir qatorda al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, al-Farg‘oniy, Mahmud Zamashariy, al-Farobi kabi o‘z ilmi va tafakkuri bilan dunyoni lol qoldirgan allomalarimizning yetukligi zamirida islom dini turganligi barchamizga ma’lum.

Musulmon olimlarning ilmiy merosini o‘rganishda, xossatan ta’lim sohasida diniylik bilan dunyoviylik o‘rtasidagi mantiqsiz mantiqiy nisbatning shakllanishi bizning asrimizda ro‘y berdi, desak yanglishmaymiz. Chunki, islom dini nozil qilingan davrdan to shu bizning asrimizga qadar ta’limda bu diniy ta’lim, bu dunyoviy ta’lim deb ajratilmagan.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ilmlarni dunyoviy va diniyga ajratish, bu ikki ilmni bir-biridan ayro holda talqin qilish va ular o‘rtasida go‘yoki mantiqiy muvozanatni o‘rnatishga bo‘lgan intilishlar oqibati o‘sib kelayotgan yosh avlod ongi va shuurida o‘zining salbiy natijalarini nomoyon qilib bormoqda. Bu holatni zamonamizning har bir aqli raso insoni anglab yetgan. Bugungi kunda diniy va dunyoviy ta’lim uyg‘unligini tiklash zarurati, hech bir mubolag‘asiz, mamlakatning ma’naviy taqdirini hal qiluvchi omillardan biridir. Diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan holda ta’lim jarayonini amaliyotga tatbiq etish kechiktirib bo‘lmas dolzarb muammolardan biri ekanligi jamiyatning aksar qismiga kunday ravshan. Voqe’likda aks etib turgan shunga bog‘liq yetarli salbiy natijalar borligiga qaramasdan hamon ta’lim-tarbiyada diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘un ravishda yosh avlodga yetkazish ota-onalar va murabbiylar orzusi bo‘lib turibdi.

Oliy maqsad yosh avlodni iymon e’tiqodini Vatan ravnaqi uchun ruhan va ma’nan komil inson etib tarbiyalash har bir ota –ona va ustoz murabbiylarimiz burchidir. Farzandlarimiz, ya’ni yosh avlod uchun sharqona – diniy va dunyoviy bilimlarni o‘zida uyg‘unlashtirgan ta’lim-tarbiyani jahon andozalariga mos, fan taraqqiyoti omilari orqali yetkazish bunda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Diniy bag‘rikenglik g‘oyasi barcha davrlarda, hozirgi kunda ham, kelajakda ham dolzarbligini yo‘qotmaydi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarining, jumladan vijdon erkinligining buzilishi yoki diniy e’tiqodni nazar-pisand qilmaslik urushlar va og‘ir mojarolarning bevosita yoki bilvosita sabablari hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, XX asrning oxirgi choragi XXI asrning hozirgi sharoitida jahon xalqlari hayotida globallashuv muammolari yuzaga kela boshladiki, bu jarayonning bir yo‘nalishi millatlararo va dinlararo munosabatlarda bo‘lib, ko‘pgina mamlakatlarda diniy bag‘rikenglikni ta’minalash orqali jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni shakllantirish zaruriyatini tug‘ildi;

ikkinchidan, diniy bag‘rikenglikka asoslangan ongni barcha jahon xalqlarida, ularning millati, irqi, tili, dini, madaniyatidan qat’iy nazar shakllantirish din erkinligini umumjahon miqyosida hal etish bilan bog‘liqidir. Shu boisdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt», «Din yoki e’tiqodlar zamiridagi murosasizlik va kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risidagi deklaratsiya» va boshqa bandlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida «har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega» (18-modda). «Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to‘liq kamol topishi mumkin» (22-modda);

uchinchidan, O'zbekistonda din va e'tiqod erkinligining to'liq ta'minlanishi va uning konstitutsion kafolatlanishi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda mavjud dinlarning o'rni va rolini oshib borishiga ma'naviy zamin yaratadi;

to'rtinchidan, davlatimizning dinga nisbatan siyosatida diniy qadriyatlar barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli degan tamoyillarga asoslanib, shaxs va jamiyat taraqqiyotida barqarorlik diniy va millatlararo bag'rikenglikni ta'minlashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday ko'pmillatli, ko'p dinli davlatda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotga mustahkam zamin yaratuvchi, uning istiqbolini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va dinlararo murosa borasida olib borilayotgan ishlar nafaqat MDH davlatlariga, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Albatta, xalqimizga azaldan xos bu xislat bir zumda paydo bo'lgan emas, u uzoq tarixga ega. Respublikada tolerantlikni mustahkamlash borasida xristian konfessiyalari, ayniqsa, pravoslavlар aholida diniy bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo'lida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etib kelmoqdalar. Jamiyatda dinlararo nizo va murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan missionerlik harakatlarining oldini olishda faol qatnashmoqdalar. Ularning xalqaro anjumanlardagi ma'ruzalari dunyo jamoatchiliginin mamlakatimizda e'tiqod erkinligi hamda millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlashda amalga oshirilayotgan islohotlardan boxabar qilmoqda.

Dunyoda sodir etilayotgan nizolarning aksariyati milliy va diniy yoki irqiy asoslardan kelib chiqqan fuqarolik urushlaridir. Bu kabi mojarolarning kelib chiqishi va hozirgi kunga qadar davom etib, hal etilmayotgani millatlar va dinlararo munosabatlarni hamda uning nazariyasini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi natijasidir. Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi nafaqat Sharq, balki G'arb sivilizatsiyasiga mos keladigan umuminsoniy tamoyillar, an'ana va urf-odatlar, turli dinlarga e'tiqod, rang-barang turmush tarzidan iborat ma'naviy mezonzlarni o'zida aks ettiradi. Ushbu ijobiy holat ko'p yillar mobaynida turli millat va din vakillari o'rtasida murosasiz kurash to'xtamayotgan Yaqin Sharq, Iroq, Suriya va boshqa hududlarda etnik hamda diniy qarama-qarshiliklar mintaqaviy mojarolarning avj olishiga manba bo'lib xizmat qilayotgan davlatlar uchun namuna bo'lishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Бабаджанов.Б.Секуляризм и проблема межконфессионального отчуждения. (опыт Центральной Азии) Религия и общество № 2 (56) 2008. Владимир (Иким). Маънавиятнинг гуллаши. Мустақиллик ва динлараро тотувлик// демократлаштириш ва инсон хукуқлари. – 1999. – №3-4.
2. Мусаев М. Т.Миллатлараро тотувлик ва диний бағриенгликни таъминлашда

Ўзбекистон тажрибаси The culture of tolerance in the context of globalization: methodology of research, reality and prospect: materials of the international scientific conference on May 13–14, 2014.

3. Раззоков Д., Бобоев А. А. Миссионерлик фаолиятининг маънавиятимизга таҳдииди ҳакида. Ўзбекистон Республикаси ИИВ академиясининг ахборотномаси. 2014 йил 2сон.
4. Юнусова А. Т. Религия и общество// Ҳуқуқ–Право–Law. – 2002. – №1. – Б. 10–126.
5. Хусниддинов З. Миллатлараро тутувлик ва диний бағрикенглик. // «Жамият ва бошқарув» 2003. – Б.10.
6. Юсупова Олия. Марказий Осиёда динлараро мулоқотнинг замонавий муаммолари. //Ижтимоий фикр: инсон ҳуқуqlари-Т.: 2002. - № 4.-Б.58
7. Ф.Адилов. Ўзбекистонда конфессиялараро келишувни мустаҳкамлаш масалалари. Бағрикенглик жамият барқарорлигининг асоси. (Илмий-амалий анжуман материаллари)-Т.: 2002. – Б.36.
8. Edward J. Jurji Interfaith and Intercultural Communication. *Numen*, Vol. 15, Fasc. 2 (May, 1968), pp. 81-93.
9. Leigh E. Schmidt. A History of All Religions. *Journal of the Early Republic*, Vol. 24, No. 2 (Summer, 2004), pp. 327-334.
10. Guat Kwee See. Muslim-christian dialogue: signs of hope. *European Judaism: A Journal for the New Europe*, Vol. 38, No. 1 (Spring 2005), pp.48-61.